

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI



## **"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR"**

respublika ilmiy-amaliy anjuman  
materiallari



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA  
FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUT**

**TABIY FANLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI BO'LIMI**

**"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI  
O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:  
MUAMMO VA YECHIMLAR"**

**respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



**Тошкент-2023**

## TAHRIR HAY'ATI

<b>1. X.I.Ibraimov</b>	-	pedagogika fanlari doktori, professor
<b>2. R.X.Djurayev</b>	-	pedagogika fanlari doktori, akademik
<b>3. A.X.Maxmudov</b>	-	pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>4. H.M.Tojiboyeva</b>	-	pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent
<b>5. L.M.Qaraxonova</b>	-	pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD) dotsent
<b>6. Z.SH.Uchkurova</b>	-	tayanch doktorant
<b>7. C.Abdurizayeva</b>	-	tayanch doktorant

*Pedagogika fanlari doktori, professor X.I.Ibraimovning umumiy tahriri ostida*

Mazkur to‘plamda uzlusiz ta’lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitish, tabiiy fanga hozirgi kunda ularni o‘qitish jarayoniga zamonaviy ta’lim innovatsiyalarini joriy etish, raqamli ta’lim texnologiyalari vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ta’limning sifat va samaradorligiga erishish yo‘llarini aniqlashtirish, uzlusiz ta’limi tizimi bosqichlarida tabiiy fanlar, jumladan, biologiya, kimyo, geografiya, astronomiya va fizika fanlarini o‘qitilishining hozirgi holati va takomillashtirish masalalari, bevosita tabiiy fanlarni o‘qitilishida mavjud muammolar va ularning yechimlarni muhokama qilish masalalari bayon etilgan.

Maqola va tezislarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish hamda uzlusiz ta’lim tizimi uchun ahamiyatli bo’lgan qimmatli fikrlar keltirilgan. Ushbu to‘plam pedagogik jamoatchilik va tadqiqotchilar uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

*T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy kengashi qarori (31.03.2023 № 3) bilan nashrga tavsiya etilgan.*

3. So‘zli harakat - so‘z bu fikr bayoni. So‘zni sahnada aniq maqsadga erishmoq uchun aytildi. So‘z inson ruhiyatiga, ya’ni intellektiga, tasavvuriga va his-tuyg‘ulariga har tomonlama ta’sir qilish kuchiga ega.

**Quticha qo‘g‘irchoq.** Qo‘g‘irchoqning bosh qismi uchun turli-tuman qutichalarni moslashtirish mumkin masalan; qaymoqdan, sutdan bo‘shagan kubik, silindr shaklidagi idishlar. Asosiysi unga bolaning qo‘li sig‘ishi kerak. Bolani o‘zi xohlayotgan mavzuga mos qutichalarni to‘plab qo‘yishga o‘rgatish kerak, detallarini esa, turli ashyolardan qirqish va elimlash mumkin. Buning uchun bolalarga jihozlash uslubini ko‘rsatish kerak. Bolalar bilan shunday o‘yinchoqlar rasmlarini ko‘rib chiqish yasashning ikki varianti mavjud: figuraning butun yoki bosh qismini aks ettirish. Bunda bolalar qo‘lga matodan yubka kiyib, mustaqil tika oladilar. Qo‘l barmoqlari quticha ichiga berkitilgan. Bunday qo‘g‘irchoqlardan gapiruvchi qo‘g‘irchoq qilish mumkin. Bolalarga og‘zini qilish uchun tuynukcha qirqishga yordam berish kerak. Qutichaning ichidan tuynuk oldini ko‘rsatkich barmoq bilan qimirlatsa, go‘yoki qo‘g‘irchoq gapirayotganday tuyuladi.

#### *FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR*

1. Yu.G.Karamenko. “Kukolnoy teatr-doshkol’nikam” M.Prosvesheniy O‘quv qo‘llanma-1982.
2. Rahima Movlonova. Marhamat Satbayeva. "O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot" Toshkent- "Ilm Ziyo"-2010
3. Aziza Murodova. Gulnoza Murodova "O‘yinchoqlar yasash san’ati" Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2008.



#### **ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

*QULIYEVA SH.H.,  
Buxoro davlat universiteti,  
“Elektronika va texnologiya” kafedrasi dotsenti*

O‘qituvchilarning xususiy fanlar asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy

bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir.

### **Pedagogik jarayonni loyihalashda:**

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarini oldindin ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Bu bosqichida o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati etakchi o'rinni tutadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, albatta, uni qanday metod asosida o'tkazish haqida bosh qotiradi. Yuzaki qaraganda, har bir mavzuni xohlagan metodni qo'llab o'tkazaversa bo'ladi, lekin amalda buning iloji yo'q. Bunga qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablar, mavjud sharoit salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologiya, pedagogika bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlarda dars o'tish metodini tanlashga ta'sir qiluvchi juda ko'p omillar ko'rsatiladi.

Turli-tuman omillarning dars o'tish metodini tanlashdagi o'rinnarini iyerarxik tarzda joylashtiradigan bo'lsak ko'pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha. birinchi o'rinda ta'limning maqsadi turadi. Aynan dars o'tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo'lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o'rinda ta'limning motivatsiya darajasi turadi. Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u. Insonni o'qishga o'rganishga ham ana shu tuyg'u undaydi. Sub'yektiv nuqtayi nazardan esa motivatsiya birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi dars o'tish metodini tanlar ekan, albatta, o'quvchi, talabalardagi motivatsiya darajasiga e'tibor berish kerak. Dars o'tish metodini tanlaganda ta'lim qonuniyatlarini va prinsiplarini realizatsiya qilishni nazardan qochirmaslik kerak (qonuniyat – ob'yektiv amal qiluvchi hodisalarning muhim aloqadorligi, bog'lanishlari va ularning qonunlari, qonuniy asosda tabiiy ravishda o'z-o'zidan kelib chiquvchi muqarrar ish, hodisa va boshqa shu kabilar). Har bir fanni o'rganishda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlaridan, didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holda tanlanadi. XV-XVI asrlarda mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o'qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham etakchi asosi sifatida qaraganlar.

Ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar quyidagilarda ifodalanadi:

- ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotini aks ettiradi;
- ta'lim va tarbiya jarayoni hamda o'quvchi;

- talabalar tafakkurini rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog‘langan;
- o‘qitish va o‘rganish jarayonlari yaxlit ta’lim jarayoni, muayyan ta’lim mazmuni bilan bir-birini taqozo etadi va ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;
- ta’lim oluvchilarni biron-bir faoliyatga o‘rgatish uni shu faoliyatga maqsadga muvofiq jalb etish orqali amalga oshiriladi;
- o‘qitish maqsadi va o‘quv yurti ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari va shakllari o‘rtasidagi qonuniy bog‘liqlik;
- o‘quv jarayoni o‘quvchi - talaba maqsadining o‘qituvchi maqsadiga muvofiq bo‘lishi tufayli amalga oshadi. Bunda o‘qituvchi faoliyati o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan mazmuniga mos bo‘lishi shart;
- ta’lim mazmunini o‘zlashtirish sur’ati va puxtaligi, o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan o‘quv faoliyatiga, o‘quvchi, talabalarni bilishga bo‘lgan qiziqishini ta’minalash;
- ularning har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan o‘quv jarayoniga qay darajada jalb qilinishi;
- o‘zlashtirilgan o‘quv materiali mazmunining puxtaligini ta’minalashda mavzuni to‘liq yoki qisman takrorlash.

**Loyihalash** (lot. rrojectus - olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz), nomini o‘zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, proyekt ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Loyihalash pedagogning kasbiy faoliyati turi sifatida ishlab chiqilgan muayyan o‘qitish texnologiyasini, o‘quv jarayoni doirasida joriy etiladigan pedagogik tizimni didaktik ifodalashni anglatadi. O‘qituvchining konstruktiv faoliyati o‘quv materialini saralash, ishlab chiqish, ya’ni yaratilgan loyihani amaliyotda qo‘llash uchun moddiy asos yaratish bilan bog‘liqdir.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. *Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.*
2. *Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A., SH.Abduraxmonov, Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.*
3. *K Shakhnoza, K Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.*

<b>R.SH.BERDIQULOV, S.X.SULTONOVA</b>	<i>Kimyoviy til va obrazli fikrlash - kimyoni o'rganish vositasi sifatida</i>	<b>126</b>
<b>R.A.AMANOV</b>	<i>Использование проекта clil – как методики развития предметно-языковой компетенции студентов</i>	<b>128</b>
<b>S.X.SANAKULOVA</b>	<i>Ingliz tili va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv (clil) asosida o'qitishning dolzarbliji</i>	<b>131</b>
<b>S.E. BAYMURADOVA</b>	<i>Zamonaviy geografik ta'linda mobil ilovalarning o'rni</i>	<b>133</b>
<b>S.TURG'UNBOYEV</b>	<i>Assistiv texnologiyalar inklyuziv ta'lindi rivojlantiradimi</i>	<b>136</b>
<b>S.U.SAYFALIYEVA, S.A.ABIDOVA</b>	<i>Влияние наглядных и практических методов на качество усвоения знаний при изучении раздела "пищеварительная система"</i>	<b>139</b>
<b>S.SARIMSOQOVA</b>	<i>Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida biologiyani o'qitishda tayanch va biologik kompetensiyalarini shakllantirish</i>	<b>142</b>
<b>S.S.EGAMBERDIYEV</b>	<i>Проблемы преподавания естественных наук в общеобразовательной школе</i>	<b>145</b>
<b>S.R.BEKTOSHEVA, I.E.SHERNAZAROV</b>	<i>Ummumiy ta'lim mакtab o'quvchilarida funksional savodhonlikni shakllantirish</i>	<b>147</b>
<b>S.KARIMOVA</b>	<i>Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitishga zamonaviy yondashuv</i>	<b>150</b>
<b>S.A.TOSHTEMIROVA</b>	<i>Ota-onalarning pedagogik madaniyati</i>	<b>152</b>
<b>T.V.MAMADALIYEV</b>	<i>Ta'lim Sifatini Oshirishda Smart Texnologiyalarning Imkoniyatlari</i>	<b>155</b>
<b>X.Z.ZULFQOROV, G.A.SHAXMUROVA</b>	<i>Методика повышения эффективности организации обучения естественных наук в высших образовательных учреждениях</i>	<b>157</b>
<b>Z.SH.UCHQUROVA</b>	<i>Mustaqil ta'lini elektron tashkil etish afzalliklari</i>	<b>159</b>
<b>S.R. ABDURIZAYEVA</b>	<i>Ijodiy muhitni shakllantirish sifatli ta'lim omili sifatida</i>	<b>161</b>
<b>O'.Y.IRISBOYEVA</b>	<i>Bo'lajak tarbiyachilarни badiiy asarlarni sahnalachtirishga o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari</i>	<b>164</b>
<b>SH.H.QULIYEVA</b>	<i>Zamonaviy o'qituvchining loyihalash kompetentligini takomillashtirish yo'llari</i>	<b>167</b>
<b>SH.O.TOSHPO'LATOVA</b>	<i>Fizika fanidan eksperimental masalalarni echiшning noananaviy metodikasi</i>	<b>170</b>
<b>SH.Q.MUXAMMEDOV</b>	<i>Tabiiy fanlarni o'qitishda predmetlar integratsiyasi va innovatsion texnologiyalar</i>	<b>172</b>